

**ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA AXLOQIY - MA'NAVIY INSON
OBRAZI**

Oqmuratova Hurmatoy Rahmatillo qizi

*Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti: Adabiyotshunoslik
o'zbek adabiyoti yo'nalishi 1 kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy qit'alaridagi inson obrazi, axloqiy mavzular insoniy munosabatlar ijtimoiy turmush haqida munozaralar berilgan.

Kalit so'zlar: qit'a, Navoiyning axloqiy ma'rifiy mavzusidagi qit'alar, qit'alardagi mavzular rang barangligi

Qit'a arabcha so'z bo'lib, ma'nosi "parcha", "qism", "bo'lak" demakdir. Qit'a — ikki va undan ortiq baytli she'r arab, fors, turk mumtoz she'riyatida keng tarqalgan mustaqil adabiy turlardan biridir. "G'iyos ul-lug'ot"da sharh etilishicha, qit'a "har narsaning bir bo'laki; va shoirlar istilohida ikki baytlik yoki undan ziyoda bo'lgan she'r, matla'i bor va yo'qdir, go'yoki u g'azal yoki qasidadan olingan parchadek, ammo uni "qat'a" deb, ya'ni kesib, ayirib olingan deb o'qish xatodir..." Demak, qit'a g'azal yoki boshqa she'r turining parchasi emas. Qit'a shakli ikki yo'l bilan vujudga kelgan

1. Mustaqil she'riy asar tarzida. Bu nav qit'a g'azal inkishof bo'lmagan davrlarda qasidachi shoirlar ijodida katta mavqe tutgan bo'lib, ruhiy his-hayajon, ayriliq kechinmalari va dunyoni idrok etish holatlarini bayon etishda muhim o'rin egallagan.

2. Zarurat yuzasidan biror zamondosh yoki o'tgan shoirlar g'azal, qasidasi yoki dostonidan ikki-uch bayt olib, o'z maqsadida, ko'proq "qissadan hissa" chiqarish tarzida. Shu mavrid zarurat yuzasidan qadim yoki zamondosh shoir asaridan olingan parcha yoki bayt o'zicha mustaqil bo'lib qolgan. Hazrat Navoiy ijodida eng ko'p yozilgan mavzu hukmdor va hukmdorlik, mansab va adolat mavzusidir. Ushbu qit'a ham shu xususda. Bu qit'ani hazrat Navoiy o'ziga yaqin kishilarga bitgan bir maktubidagi so'zlar bilan sharhlaymizki, ulardan ortiq so'z aytish imkonsizdir. Hazrat yozadilar: «Insonning martabasi va kattalikni sevishi tabiiy. Bu ishda nafs ixtiyorsiz va kishining sezgisi uni egallash bilan shug'ullanishni talab qiladi; mansabning xosiyati g'aflatni orttiruvchi va podshohni mast qiluvchi iltifoti xush oluvchi va shunday kishiga xalqning ishi ko'p tushadi. Agar u goho aql madadi bilan o'zini tuta olsa-da, biroq mansab mastligi uni o'z holiga qo'ymaydi. Haqiqatan, shu mastlik chog'ida falakning intiqom oluvchiligi, g'addorligi va falak holiqining adolatli hokim ekanligi qachon uning xotiriga keladi. Orttirgan qudrat va martabasining baqosi yo'q va umri esa vafosizdir. Uning yomonliklaridan yolg'iz dushmanlargina kulib qo'ya qolmay, rasvoligidan do'stlar ham sharmandadur; oshnolar bu yaramasliklardan mutaasir va begonalar bu devonalikdan taajjub va hayratdadir.

Demak, nafs pok va aqli sof kimsa bu mastliklardan o'zini behush qilmasligi va o'zini O'zboshimchalik va o'zbilarmonlikka solmasligi, zulm so'rgan darmondalarning holiga boqishi kerak: Qachonki, o'z kamchiliklaridan ogoh bo'lsa, nima foydaki, falak u

varaqlarni buklab qo'ygani bo'ladi. Bu holda nadomat ohlari tortishdan foyda ko'rmaydi:“ Shu sababdan ham ”yuqori o'ltirurni» tilagandan ko'ra oddiy odamlar qatorida turish afzalroqdir, deydi hazrat Navoiy.

Yuqori o'ltirurni kim tilasa
Kishilikdin ani yiroq bilgin
O'lturur safda yuqorilikdin
O'lturur safda yaxshiroq bilgin.

Alisher Navoiy o'zining qitalarida hukmdorlar mansab egalari haqida juda ko'p yozgan. Navoiy o'zining orzusidagi hukmdor qanday bo'lishi kerakligini asarlari orqali yaratgan obrazlarida ifoda etgan. Barcha davrda ham har xil odamlar bo'lgani kabi Navoiy yashagan davrda ham har xil toifa odamlari bolgan. Navoiy " Mahbub ul qulub" asarini didaktik yo'nalishda yozadi. Bu asarda yaxshilik yomonlik haqida fikr yuritib , shunday deydi . " Yaxshilikni topmoq -yedirmoqdir , ayblarni yashirmoq-kiydirmoqdir " deydi. Bunda u kimningdir aybini oshkor qilishdan ko'ra uni yashirish mo'min musulmon kishiga xos xususiyat deya takidlab o'tadi. Ammo insonlar orasida shunday kimsalar ham borki odamlar ayblarini topib ulardan ayb qidirib ustidan kulib yuradilar, ayblarini yuziga soladilar. Jamiyatimizda bunday kimsalar afsuski hozir ham mavjud va ularning bu ishi insonlarni ko'nglini sindiradi.

Alisher Navoiyning bundan necha asrlar oldin aytgan fikrlari mavzu va g'oyalari hozirgi kunda ham o'z qadr qimmatini yo'qotgani yo'q .

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har bir inson avvalo o'z insonlik vazifasi , o'z majburiyatini, insoniylikning go'zal xulq atvorlarini o'zida sof holatda saqlashi kerak. Navoiy qit'alaridagi didaktika mavzusi ham ayni yoshlar e'tiborini toratadigan ularni tarbiyaga chorlovchi g'oyalar bilan boyitilgan. Navoiy asarlarini o'rganish orqali kitobxon yosh avlodning tarbiya ijtomoiy turmush , insoniylik haqidagi tushunchslari kengayadi. Demak Navoiy ijodi o'zining serqirra asarlari bilan butun dunyoni lol qoldirmoqda va keng miqyosda tahlil qilib borilmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy mukammal asarlar to'plami T 2003
- 2 .Alisher Navoiy " Mahbub ul -qulub " T 2015.
- 3 . Navoiy asarlari izohli lug'ati 4 jildlik T 1983- 1985